

Yirik iste'molchilar bilan ishlash boshqarmasi

Yirik iste'molchilar bilan ishlash boshqarmasi asosan respublika hududidagi yirik iste'molchilar (xususan sanoat korxonalari, Avtomobillarga gaz to'ldirish kompressor shoxobcha (AGTKSh)lari va Issiqlik manbai korxonalari – keyingi o'rinlarda iste'molchilar) bilan ishlaydi. Xususan:

- iste'molchilarga “Tabiiy gazdan foydalanish qoidalari” talablariga hamda “Tabiiy gazni yetkazib berish va uni qabul qilish to'g'risida”gi shartnoma shartlariga asosan tabiiy gaz yetkazib berilishi;
- iste'molchilarning tabiiy gazdan oqilona foydalanishi;
- iste'molchilar bilan o'z vaqtida shartnomalar rasmiylashtirilishi;
- iste'molchilar tomonidan gaz ta'minoti tashkilotiga kelib tushgan ariza, shikoyat va takliflarini Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risidagi Qonun talablariga muvofiq sifatli va o'z muddatida ko'rib chiqish va iste'molchilarga asoslantirilgan javoblar yo'llash;
- iste'molchilarga gazdan foydalanish bo'yicha ko'rsatmalar berish;
- iste'molchilarga yetkazib berilgan tabiiy gaz uchun debitor qarzdorliklar paydo bo'lishining oldini olish, ulardan oldindan to'lovlarni undirish;
- shartnoma shartlariga amal qilinishini nazorat qilish, shartnoma shartlari buzilganda, qarzdorlik paydo bo'lganda, tabiiy gazdan noqonuniy foydalanilganda yoki gaz ta'minoti tashkiloti vakillarining qonuniy talablari bajarilmaganda ularni ogohlantirgan holda gaz tarmoqlaridan uzish;
- kuz-qish mavsumida tabiiy gaz tanqisligi kuzatilganda aholi va ijtimoiy soha obyektlarini bir maromda uzluksiz tabiiy gaz bilan ta'minlash maqsadida “Tabiiy gazdan foydalanish qoidalari” talablariga muvofiq mahalliy hokimliklar, “O'zenergoinspeksiya” va gaz ta'minoti tashkilotlari tomonidan tasdiqlangan grafiklar asosida iste'molchilarning tabiiy gaz ta'minotiga vaqtinchalik cheklovlar kiritish;
- iste'molchilarga tabiiy gazni yetkazib berish jarayonlarida “Tabiiy gazdan foydalanish qoidalari” talablariga rioya etilishini nazorat qilish.